

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) davlat rahbarlarining 11-sammiti Qirg‘iziston Respublikasi poytaxti, Bishkek shahrida bo‘lib o‘tadi.

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Davlat rahbarlarining 11-sammiti 2024-yil 6-noyabr kuni Qirg‘iziston Respublikasi poytaxti Bishkek shahrida bo‘lib o‘tadi. Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti **Sadir Japarov** mezbonlik qiladigan ushbu Sammitda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Turkiya va O‘zbekiston prezidentlari ishtirok etadi. Bundan tashqari, sammitda TDT kuzatuvchilari davlat/hukumat rahbarlari va TDT Bosh kotibi ham ishtirok etadi.

“Turkiy dunyoning mustahkamlanishi: Iqtisodiy integratsiya, barqaror rivojlanish, raqamli kelajak va barcha uchun xavfsizlik” shiori bilan o‘tkaziladigan sammit, tashkilotning keng qamrovli kun tartibini yuqori darajada muhokama qilish uchun muhim maydon yaratadi. Bu sammitda rahbarlar; iqtisodiyot, savdo, raqamli transformatsiya, transport va xavfsizlik sohalaridagi TDT loyihalari bilan bog‘liq asosiy masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi, kelishuvlar imzolaydi va rasmiy hujjatlarni tasdiqlashadi.

Bundan tashqari, kun tartibidan mintaqadagi va undan tashqaridagi siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni muhokama qilish, shuningdek, a’zo davlatlar va kuzatuvchilar o‘rtasidagi turli sohalardagi ko‘p tomonlama hamkorlikka e’tibor qaratiladi. Rahbarlar, Turk dunyosi birligi va taraqqiyotini yanada mustahkamlash uchun mushtarak muammolarga qarshi kurashish va imkoniyatlardan foydalanish borasida fikr almashadilar.

Sammit yakunlanishi bilan **muddatli raislik Qozog‘istondan Qirg‘iziston Respublikasiga o‘tadi.** Yakunlash marosimida, davlat rahbarlari **Bishkek deklaratsiyasini** va bir qator muhim qarorlarni imzolaydilar.

Sammit oldidan TDT Tashqi ishlar vazirlari kengashi Bishkekda yig‘ilib, kun tartibidagi masalalar va davlat rahbarlari tomonidan imzolanadigan hujjatlarni yakunlaydilar.

Turkiy davlatlar tashkiloti kotibiyati